



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMI



Oliy ta'lim bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalvriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalvriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalvriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.



# Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda (2020/2021-o'quv yili boshida)






O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 127 ta oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 7 ta akademiya, 64 ta universitetlar va 6 ta oliy diniy ta'lim tashkilotlari hamda filiallari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2020/2021-o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari soni 127 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 taga (6,7%) ko'paydi.



# Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 571,5 ming nafar talaba tahsil olayotgan bo'lib, ularning asosiy qismi ya'ni 185,5 ming nafar talaba (32,5 %) Toshkent shahrida tahsil olmoqda

# Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



ayollar

45,5%



2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 571,5 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 260,0 ming nafarini (45,5 % ni) qizlar va 311,5 ming nafarini erkaklar (54,5 % ni) tashkil etdi.

erkaklar

54,5%



## Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



<b>Jami</b>	<b>571,5</b>	<b>26 yosh</b>	<b>24,0</b>	<b>36 yosh</b>	<b>4,4</b>
<b>17 yosh va undan kichik</b>	<b>9,5</b>	<b>27 yosh</b>	<b>16,8</b>	<b>37 yosh</b>	<b>3,8</b>
<b>18 yosh</b>	<b>42,6</b>	<b>28 yosh</b>	<b>12,7</b>	<b>38 yosh</b>	<b>3,3</b>
<b>19 yosh</b>	<b>59,7</b>	<b>29 yosh</b>	<b>9,4</b>	<b>39 yosh</b>	<b>2,8</b>
<b>20 yosh</b>	<b>67,8</b>	<b>30 yosh</b>	<b>7,8</b>	<b>40 yosh</b>	<b>2,4</b>
<b>21 yosh</b>	<b>68,2</b>	<b>31 yosh</b>	<b>6,1</b>	<b>41 yosh</b>	<b>2,1</b>
<b>22 yosh</b>	<b>66,8</b>	<b>32 yosh</b>	<b>6,1</b>	<b>42 yosh</b>	<b>1,6</b>
<b>23 yosh</b>	<b>55,8</b>	<b>33 yosh</b>	<b>5,1</b>	<b>43 yosh</b>	<b>1,2</b>
<b>24 yosh</b>	<b>45,4</b>	<b>34 yosh</b>	<b>4,7</b>	<b>44 yosh</b>	<b>1,0</b>
<b>25 yosh</b>	<b>33,8</b>	<b>35 yosh</b>	<b>4,8</b>	<b>45 yosh va undan katta</b>	<b>1,8</b>



2020/2021- o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida 571,5 ming nafar talaba ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 68,2 ming nafari 21 yoshni, 67,8 ming nafari 20 yoshni, 66,8 ming nafari 22 yoshni, 55,8 ming nafari 23 yoshni tashkil etmoqda.


# Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



✓ 2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlariga jami 174,9 ming nafar talaba qabul qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,6 % ga oshgan. Eng ko'p qabul qilingan talabalar Toshkent shahriga to'g'ri kelgan.



# Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirganlar soni, (2020- yil, ming kishi)



✓ 2020- yilda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarini jami 83,9 ming nafar talabalar tamomlagan bo'lib, ulardan 37,9 ming nafarini ayollar (45,2% ni) tashkil etsa, 46,0 ming nafari erkaklar (54,8 % ni) dan iborat.

# Oliy ta'lim tashkilotlarining professor- o'qituvchi xodimlari soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida jami 32,1 ming nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 14,2 ming nafari ayollar (44,2 %) ni tashkil etsa, 17,9 ming nafari erkaklar (55,8 %) dan iborat.

## Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda (o'quv yili boshida)



✓ O'zbekiston Respublikasida 2020/2021- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni 127 tani tashkil etib, jami oliy ta'lim tashkilotlari sonidan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari 20 tani tashkil etdi.

## Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



✓ O'zbekiston Respublikasida 2020/2021- o'quv yili boshida xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida jami 27,7 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ma'lumot uchun 2016/2017- o'quv yili boshida xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan 9,3 ming nafar talabaga nisbatan 2020/2021- o'quv yili boshida 18,4 ming nafar talabaga ko'paygan.

Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi  
Tel.: (71) 202-81-62